

Sopolli madaniyatining yodgorliklari.

Sopolli madaniyati yodgorliklari Surxondaryo viloyatining Sherobod va Sho'rchi tumanlarining uch zonasi hudularida joylashgan. Yodgorliklarning birinchi guruhi eski Ulanbuloq daryosining o'zanlari hududlari bo'ylab joylashgan, ikkinchi tipdagi yodgorliklar Bo'ston daryosining bo'ylarida paydo bo'lgan, uchinchi guruhdagi yodgorliklar esa Qizilsoy daryosining o'zani bo'ylab joy olgan. Ulanbuloq guruhi yodgorliklari uch manzilgohdan tashkil topgan: Sopollitepa, Kultepa va kichiktepa yodgorliklaridir, ular orasida eng keng miqyosda o'rganilgan yodgorlik Sopollitepa hisoblanadi. Bo'ston daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan yodgorliklar Jarqo'ton, chap qirg'oqdagilari esa Bo'ston deb yuritiladi. Bu yodgorliklar manzilgohlar xarobalari va qabristonlardan iborat. Uchinchi guruhda tilga olingan Mo'lali tipida ham qabristonlar ham aholi yashagan hududlar joylashgan, biroq, asosiy qazish ishlari qabristonlar hududlarida olib borilgan.

Sopollitepa yodgorligi 1968-yilda Surxondaryo viloyatida L.I.Albaum tomonidan ochiladi. Yodgorlikning umumiy maydoni 4 ga ni tashkil qiladi, shimoliy, sharqiy va janubi-sharqiy qismlari atrofidagi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida vayron etilgan. Sopollitepa hududidagi arxeologik qazish ishlari bir necha tanaffus va to'xtalishlar bilan 1970-, 1974-yillarda davom ettiriladi. Madaniy qatlamlar yodgorlikning turli qismlarida aniqlanganligini ko'ramiz. Shuning uchun ham eng asosiy qazishma ishlari mudofaa devorlarining atroflarida olib borilgan. Ko'pgina statsionar arxeologik qazish ishlari davomida mudofaa devoir va uning atrofida joylashgan uylar, xo'jalik xonalari ko'rinishlari, poydevorlari qanday holatda turganligi ma'lum bo'ldi. Yodgorlikka aholining ko'chib borishi va qurilish ishlarinin olib borishi asosan bronza davriga to'g'ri keladi. Sopollitepaning yuqori qatlamlari shamollar tasirida yemirilgan va buzilib ketgan. Ikkinchi qurilish garizontidan devorlarning bir necha qavatli g'ishtlardan qolgan qoldiqlari qalin madaniy qatlam ustida qal'a bo'ylab sochilib ketgan. Boshqa bir uchastkalaridan esa faqatgina keramika qoldiqlari va turli hayvonlarning suyak qoldiqlari topilgan. Bino va devorlarning qoldiqlari turli darajada saqlanib qolgan, madaniy qatlamlarning qalinligi esa 2,5 m gacha vujudga kelgan, uchta qurilish gorizonti mavjudligi aniqlangan.

Sopolli madaniyatiga tegishli materiallar o'zining turfa xilligi va boyligi bilan boshqa madaniyatlardan ajralib turadi. Sopol buyumlari, qurollar, mehnat qurollari, taqinchoqlar va pardoiz uchun ishlatiluvchi buyumlar shular jumlasidandir. Keramika buyumlari Sopollitepa yodgorligining madaniy qatlamlari va qabrlaridan topilgan. Yodgorlikning ushbu nomni olishi ham qazishmalar jarayonida juda ko'plab sopol buyumlarining topilishi va bu sopollarning o'ziga xos shakllari va bezaklaridir. Sopol buyumlari turli ko'rinishlarda mavjud bo'lib, ularni alohida mukammal o'rganishni talab etadi. Texnik jihatidan sopol buyumlarini ikki turga – qo'lda ishlangan sopollar va kulolchilik charxi yordamida yasalgan sopollarga ajratish mumkin. Qo'lda ishlangan sopol buyumlari oz miqdorni tashkil qiladi – ko'pgina tovoqlar, qalin devorlari bo'lgan xumsimon shakldagi qozonlar shular jumlasidandir, garchi bu davrda kulolchilik charxi ixtiro qilingan bo'lsa-da, ayrim holatlarda hali hamon qo'lda ishlangan sopol idishlarga ehtiyojning bor ekanligini kuzatamiz. Qo'lda ishlangan sopol buyumlari qo'pol bo'lishi bilan birga idishlarda qum-shag'al aralashmalari va qurum, kuyganlik izlarini ko'ramiz¹. Albatta, sopol tayyorlanishi uchun mahsulot xom ashyosini tanlab olish ham katta ahamiyatga egadir, madaniyatlarni o'rganish jarayonida shu narsa ko'zga tashlanadiki, eng birinchi ishlangan sopollar nafaqat texnikakasi, balki tarkibi bilan ham keyingi davr sopollari bilan farq qilgan. Keyingi davrlarda, xususan, antic va o'rta asrlarda sopollarning nihoyatda bejirim bo'lishi ko'p jihatdan keramikaning tarkibiga va, ikkilamchi, texnikasiga bog'liq bo'lgan.

¹ А. Аскарлов. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана, Ташкент, «Фан», 1977 г., стр. 64.

Dastlabki qoʻlda ishlangan sopol buyumlari neolitdavriga xos boʻlib, yurtimizda Kaltaminor madaniyati bu borada bizga nihoyatda ahamiyatli maʼlumotlarni taqdim qiladi. Sopollar qoʻlda ishlangan boʻlib² olovda kuydirib pishirilgan. Sopol buyumlariga turli xil botiq shakldagi naqshlar solingan³, arxeologlar eʼtiborini tortgan yana bir jihat sopollardagi mato izlaridir, bu sopolning yasash texnikasi bilan bogʻliq boʻlib, quritilgandan soʻng yonib ketgan matodan “yodgorlik” hisoblanadi.

Yuqorida keltirib oʻtilganidek yodgorlikdan topilgan sopol buyumlarining eng koʻp qismini charx yordamida yasalganlari tashkil qiladi, bunday usuldan foydalangan holda sopol buyumlarini yasash biroz murakkabroq boʻlsada, ammo mahsulot silliq va bejirim chiqishini taʼminlaydi. Yodgorlikning keramika mahsulotlari tayyorlangan loy hech qanday elastiklikni taʼminlovchi qoʻshimcha mahsulotlarsiz ham juda pishiq va chiroyli idishlarning tayyorlanishiga imkon bergan. Deyarli barcha sopol buyumlari juda yaxshi pishirib olingan. Baʼzi sopol buyumlari yuqori qismida qizil angobning izlari bor – xumcha, konussimon piyolalar, kubiksimon va vazasimon idishlar shular jumlasidan. Sopol buyumlari qizil va toʻq qizil ranglariga boʻyalgan, oshxona va marosimlar uchun moʻljallanganlari esa och qizil va koʻkish ranglar bilan bezatilgan. Sopollarni qizil rangga boʻyalish anʼanasi juda qadim davrlardan davom etib kelgan, bunga sabab qizil rangning yorqinligi boʻlsa, yana bir sabab ushbu buyoqning tabiiy ravishda boshqa turdagi boʻyoqlarga qaraganda koʻp miqdorda uchratilishidir. Konussimon koʻrinishdagi chashkalarning va choynaklarning ostki qismida ipdan qolgan qirqimning izlari saqlanib qolgan. Rang berilganligini hisobga olmaganda, deyarli barcha idishlar bezaklarsiz. Biroq koʻpgina koʻzalarning tashqi tarafida halqasimon izlar, choynaklarda esa ustaning xochsimon, yarim oval, oval, yurak sxematik tasvirisimon, “A” harfisimon belgilar mavjud. Muhr izlari idishlarning yuqori ogʻiz qismida ham uchraydi va izlar oʻtkir tigʻli yoki oʻtmas tigʻli asboblardan ham qoʻyilgan.

Sopollitepa manzilgohida keramik idishlardan tashqari toshdan va bronzadan ishlangan koʻplab buyumlar ham arxeologlar tomonidan topilgan. Toshdan yasalgan buyumlar – kuvacha, piyolasimon va kosasimon oq hamda qizgʻimtir marmardan, ohaktoshdan qilingan. Toshdan ishlangan buyumlar nihoyatda mohirlik bilan tayyorlangan, buda sopollitepaliklarning bu borada qoʻli gul mohir usta ekanliklari maʼlum boʻladi. Kosalarning barchasining boʻyi kalta holatda, bunga toshdan buyum yasashning ogʻirligi va moʻrt boʻlishi sabab boʻlgan boʻlsa, ajab emas. Shuni ham aytish kerakki, tosh buyumlarning barchasi qabrlardan topilgan, shunga binoan ularni turmushda ishlatish uchun yasamagan boʻlishlari ham mumkin⁴.

Sopollitepa hududidan topilgan metall buyumlari tashqi koʻrinishi jihatidan turli shakllarga ega boʻlib, bu idishlar aksariyati tosh buyumlari kabi qabrlardan topilgan. Metall idishlari qorin qismi kengroq, ogʻiz qismi choʻzilgan va bu turdagi metall idishlarining ham turli koʻrinish va shakllari uchratiladi. Bir guruh metall idishlarining hajmi 7 – 10 sm atrofida boʻlib, kimyoviy taxlil natijalariga koʻra, idishlarda surma saqlangan boʻlishi mumkin. Ikkinchi guruhga oid metall buyumlari biroz kattaroq – 10 – 14 sm atrofida, ularning shakli silindirni eslatadi, baʼzilarida tutqich dasta ham oʻrnatilgan. Idishning devorlari anchagina yupqa. Ikkinchi va uchinchi guruhdagi chashkalar ham bronza metalidan tayyorlangan yarimsferik va koʻzasimon koʻrinishlarda.

Sopollitepa manzilgohidan topilgan buyumlar orasida yogʻoch idishlar va savatlar ham mavjud. Yogʻoch buyumlarining ham aksariyati qabrlarda saqlanib qolgan. Topilgan artefaktlarning barchasi arxeologlar tomonidan turlarga ajratilgan.

² Жўракулов М., Ўрта Осиё ибтидоий археологияси, Т., 1984, 52 б.

³ С.П.Толстов, Древний Хорезм, МГУ, Москва, 1948, стр. 64.

⁴ А. Аскарлов. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана, Ташкент, «Фан», 1977 г., стр. 69.

Ko'plab arxeologik topilmalarni tadqiq etish shuni ko'rsatdiki, Janubiy O'zbekiston hududi o'zining iqlimi, tabiiy sharoiti va geografik o'rni bilan dehqonchilik madaniyatlaridan biriga aylanishiga sababchi bo'lgan. Ziroatkor qabilalar muntazam ravishda Markaziy Osiyoning janubi-g'arbiy hududlari, Shinoli-sharqiy Eron, Janubiy Afg'oniston bilan bir tarafdin, ikkinchi tarafdin, Markaziy Osiyoning shimoliy hududlari bilan aloqada bo'lganlar. Topilmalar yordamida Sopolli madaniyati O'zbekiston hududa alohida tarzda shakllanganligini va madaniyat darajasiga yetganligini aytish mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan hududlardagi madaniyatlar bilan olib borilgan muntazam aloqalar sopollitepaliklar hayotida ham aks etgan, dehqonchilik va hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Ammo shuni ham qo'shimcha qilish kerakki, sopolli madaniyati o'ziga xos hunarmandchilik buyumlari va qurollari hamda boshqa turdagi topilmalari bilan yer yuzida uchraydigan madaniyatlardan ajralib turadi.

Sopolli tipidagi qabilalarning madaniyati nafaqat Janubiy O'zbekiston hududlariga, balki Shimoliy Afg'oniston, Murg'ob vohasi, Janubiy Turkmanistonning tog'oldi hududlari va Shimoli-sharqiy Eron hududlariga tarqaladi⁵. Sopolli madaniyatining aksariyati keramik idishlari kulolchilik charxida tayyorlangan, sopol buyumlari juda yaxshi holatda pishirib olingan, to'q qizil va qizg'imgir ranglardagi angob bilan bo'yalgan. Sopolli madaniyatiga eng yaqin madaniyatlardan biri bu Dashli madaniyati hisoblanadi. Sopolli va Dashli madaniyatiga tegishli tumorlar toshlardan va loydan tayyorlangan, ularga gulsimon va boshqa ko'rinishdagi naqshlar solingan.

Sopolli madaniyatining kelib chiqishi to'g'risida antropologik ma'lumotlarga to'xtalib o'tish ham kerakli ma'lumotlarni berishi mumkin. Sopollitepa va Jarqo'ton hududlaridan olingan antropologik materiallar sopolli madaniyati haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirdi. Sopollitepadagi 138 qabrdan jami bo'lib 158 jasad qoldiqlari topilgan, shundan 54 tasi katta yoshdagi ayollar, 50 tasi erkaklar, 38 tasi 1 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar va 16 tasi bir yoshgacha bo'lga bolalarga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi. Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklaridagi antropologik materiallar T.Xodjayev va X.Xalilovlar tomonidan o'rganilgan. Jarqo'ton yodgorligidagi odam bosh suyaklari Sopollitepa yodgorligidan ko'ra ko'proq ma'lumotlarni taqdim etadi.

Sopollitepadan topilgan ayol va erkaklarga tegishli bosh suyaklari bitta tipga mansub. Barcha bosh chanoqlari uzunchoq yuzli, vaqatgina dumaloq yuzli bosh suyaklari ikki dona topilgan. T.Xodjayevning izoh keltirishicha bunday holat normal holat bo'lib hisoblanadi va shunga qaramasdan aholining yuz tuzilishini cho'ziq boshli odamlar deyishga to'sqinlik qilmaydi. Sopolliliklarning lablari tuzilishi o'rtacha qalinlikda, qoshlari yoyi ham o'rtacha holatda shakllangan. Burunlarining tuzilishi ham o'rtach kenglikda, qirrador holatda chiqqan. Sopolli madaniyatining aholisi antropologik tipi yevropoid irqiga to'g'ri keladi.

Sopolli madaniyatining aholisi bosh suyaklari Xafuztepa, Sialik yodgorliklaridan topilgan bosh chanoqlaridan farq qilib tursa, Oltintepa va Gyuksuyur vohalaridan topilgan bosh suyak qoldilari sopolli madaniyatiga bir muncha yaqin turadi. Sopolli madaniyati aholisining antropologik jihatdan eng yaqin o'xshash variantlari Zamonbobo madaniyati yodgorliklarida kuzatiladi.

Sopolli madaniyatining dafn odatlari haqida ham alohida to'xtalib o'tish kerak. Sopollitepa yodgorligida alohida mozar qo'rg'onlari aniqlanmagan, aholi jasadlarni odatga ko'ra uylarning poli ostiga, bino va boshqa turdagi inshootlarning devorlari tag qismlariga dafn etib kelganlar. Faqatgina Jarqo'ton va Mo'lali davriga tegishli yodgorliklarda aholining alohida tashkil etilgan qabristonlarda dafn etilganiga guvoh bo'lamiz. Sopolli madaniyati yodgorliklarida olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar manzilgohlarda dehqonchilik yaxshi rivojlanganligini tasdiqlaydi, aholining yana bir mashg'ulotlaridan biri bu chorvachilik hisoblangan. Ko'plab uy hayvonlari suyaklarining topilishi buning isboti bo'la oladi. Albatta, ovchilik ham

⁵ А. Аскарлов. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана, Ташкент, «Фан», 1977 г., стр. 106.

bu davrda aholining mashg'ulotlaridan biri bo'lgan bo'lishi mumkin, bunga sabab har doim ham iqlim qulay kelmagan, yoki qaysidir ma'noda ovchilik o'zini ahamiyatini butunlay yo'qotmaydi. Jarqo'ton va Sopollitepa yodgorliklarining topilamalari bir birigan juda o'xshash, sopollar orasida ham, metall buyumlari orasida ham farq deyarli sezilmaydi, bu esa yodgorliklarning aynan bitta madaniyatga – Sopolli madaniyatiga tegishli ekanligini tasdiqlaydi.

Ikki yodgorlikning, yuqorida keltirib o'tganimizdek, **dafn marosimlarida** ham o'xshash jihatlar bor. Biroq sopollitepaliklar jasadlarni uylari pol ostiga va inshootlar devorlarining ostki qismiga dafn qilganliklarini unutmash kerak. Odatda qabrga bukchaygan holatda ayollar chap yonlari bilan, erkaklar o'ng yonlari bilan, boshlarini shimol tarafga qaratgan holda, ko'plab idishlar bilan birgalikda dafn etilgan, kattalarning qabrlari katakomba usulida, yosh kishilarning qabrlari esa yorma usulida qazilgan.

Dehqonchilik. Sopolli madaniyatining xo'jalik asosini ishlab chiqaruvchi xo'jalik tashkil qilgan. Uning asosiy yo'nalishlari sug'orma dehqonchilik va xonaki chorvachilikdan iboratdir. Iqlimning qulayligi va geografik muhitning yaxshiligi bu yerda dehqonchilikning rivojlanishiga va taraqqiy etishiga katta turtki bo'ldi. Dehqonchilikdan keyingi o'rinni egallagan ishlab chiqatuvchi tarmoqlardan biri chorvachilik ham xo'jalikda muhim o'rin tutgan. Turli arxeologik qazishmalar, analizlar va qator tajribalar shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston hududlaridagi madaniyatlar, umuman, Markaziy Osiyo hududidagi madaniyatlarda jahon miqyosida birinchilardan bo'lib ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tgan. Miloddan avvalgi VI – V ming yilliklarda Janubiy Turkmaniston hududlarida Joytun madaniyati keng tarqaladi, albatta, bu madaniyat ham o'z navbatida Yaqin sharq hududida tarqalgan Iyerixon, Jarmo, Mesopotamiya dehqonchilik madaniyatlari bilan o'zaro aloqalarga kirishganlar. Bu narsa ushbu madaniyatlarning rivojlanishi va taraqqiy etishiga katta zamin yaratib bergan.

Hech ikkilanmasdan shuni aytish mumkinki, sopolli madaniyatida asosiy rolni xo'jalikda dehqonchilik egallagan. Buni yodgorlikda yashagan aholining muntazam o'troq turmush tarzini kechirganligi, yodgorlikdan ko'plab mehnat qurollarining topilganligi va boshqa turdagi ashyolar tasdiqlaydi. Yodgorlikning mustahkam mudofaa tizimiga ega bo'lganligi va turli maqsadlarda bunyod etilgan inshootlarning mavjudligi sopollitepaliklarning hayotida dehqonchilik naqadar muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi. Sopollitepa yodgorligini qazish jarayonlarida 150 ta bino yaxshi holatda saqlanib qolganligi va uylar hamda mudofaa devorlarining balandligi 2 metrgach ekanligi ma'lum bo'ldi, bu yodgorlikni o'rganish ishlariga katta yordam beradi va yodgorlikdagi qurilgan inshootlar haqida yetarlicha ma'lumot to'plashga imkon yaratadi. Taxmin qilish mumkinki, yodgorlikning mudofaa devorining balandligi dastlabki davrda 5 metrdan kam bo'lmagan, kengligi esa 1,6 – 1,7 metrni tashkil qilgan. Taxminiy hisob kitoblarga ko'ra faqatgina mudofaa devorining qurilishiga 40x10x20 sm lik g'ishtlardan 577 500 tacha ishlatishgan. G'isht bo'laklarining barchasiga somon aralashtirilgan. Bundan maqsad somonli g'isht mustahkam bo'lgan, somon g'ishtning tashishda, qurilish vaqtida tezda parchalanib ketishiga yo'l qo'ymagan, keyinchalik ham inshootlar devorlarida uzoq vaqtlari yaxshi holatda saqlanishiga sababchi bo'lgan. Somonli guvalalardan bugugungi kunda ham asosan qishloq hududlarida muntazam ravishda devorlarni qurishda foydalanib kelinadi, chunki azaldan bizning iqlimimiz va tabiiy shart-sharoitimiz shuni talab qiladi.

Qazish ishlari jarayonida madaniy qatlamlar orasidan ko'plab miqdordagi poxol qoldiqlariga duch kelingan. Poxollar chorvalarni oziqlantirishda hamda boshqa maqsadlar – maydalagan holda qurilish ishlari, guvalalar tayyorlashda, devorlarni suvoq qilishda qo'llanilgan. Poxollar asosan arpa va bug'doylarning poyalaridan olingan hamda chorva mollariga somon holatida berilgan. Poxollarning ko'p miqdorda topilishi Sopollitepada dehqonchilikning yaxshi rivojlanganligini ko'rsatadi, shuningdek, qo'shimcha ravishda don saqlanish uchun mo'ljallab qurilgan ombor qoldiqlarini aytish mumkin.

Har bir uyning binosida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun, ayniqsa, donni saqlash uchun alohida xonalar ajratilgan. Bu xonalarda o'choq, alohida chuqurlar yoki sandal qoldiqlari topilmagan. Donlarni saqlash uchun sopollitepaliklar boshqa vositalardan ham unumli foydalanishganlar, katta-katta xumlar don saqlash uchun qulay idishgina bo'lib qolmay, mahsulotlarni ko'plab miqdordagi kemiruvchilardan saqlagan. Saqlash uchun mo'ljallangan xonlar ochilganda pol qismi sopol parchalari bilan maxsus qatlam qilib qoplab chiqilgan, bu usul ham kemiruvchilardan saqlash maqsadida qilingan, sababi qilin sopol siniqlari orasidan kemiruvchilar o'ta olmagan. Yaqin Sharq hududida tarqalgan madaniyatlarda kemiruvchilardan hosilni saqlab qolish maqsadida ilk marta mushuk xonakilashtirilgani ma'lum⁶.

Sopollitepadan topilgan don qoldiqlari laboratoriyalarda mutaxassislar tomonidan tekshirib ko'rilganda pakana bo'yli bugdoy, arpa va uzum urug'lari ekanligi aniqlangan. Janubiy O'zbekiston hududidan topilgan bronza davriga tegishli bo'lgan ushbu don qoldiqlari Turkmanistonda tarqalgan neolit, eneolit va bronza davriga tegishli madaniyatlardagi don qoldiqlariga o'xshash.

Pakana bo'yli bugdoy navlari Afg'onistonning janubida, Mundigak II qatlamlarida, Hind daryosining bo'ylarida tarqalgan Xarappa madaniyati yodgorliklarida ham aniqlangan⁷, shuningdek, Xarappa madaniyatiga tegishli yodgorliklardan guruch donlarining qoldiqlari topilgan, bunga sabab hududning sersuv dalalari va iqlimidir. Don qoldiqlarining turli hududlardan topilishi, bugdoy navlarining asosan ikki turi ekilganligi, o'zaro madaniy aloqlar natijasida Markaziy Osiyo hududlaridan tarqalganligi olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Janubiy O'zbekiston hududi dehqonlari bir paytlar yetishtirgan so'li va arpaning yovvoyi navlari bugungi kunda ham Ko'hitang tog'i tog'-cho'l mintaqalarida uchratiladi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, yog'ingarchilik kam bo'ladigan Janubiy O'zbekiston hududlarida donli ekinlar sug'orma dehqonchilik yo'li bilan yetishtirilgan. Chunki iqlim qish kunlarida yomg'ir-qorli bo'lsa-da, yoz fasli quruq keladi va bu aksariyat hollarda ekinlarni sun'iy sug'orishni talab qiladi.

Shrobd daryosining deltasi, Xo'jaobod daryolarining bo'ylari dehqonchilik uchun qulay bo'lgan, Janubiy O'zbekiston hududlari iqlimi, albatta, sug'orma dehqonchilikni talab qilgan, bugungi kunda ham arxeologlar tomonida qadimgi sug'orish kanallari, irrigatsiya tizimlarining izlari ochib o'rganilgan. Daryo bo'ylaridagi yerlar o'zining serhosilligi bilan ajralib turgan, **Yaqin Sharq hududlarida ham paydo bo'lgan dehqonchilik madaniyatlarining rivojlarnishiga turtki bo'lgan omillardan biri ham aynan daryolarning yillik toshqinlari va unumdor loyqalarning yerlarning yuzasiga keltirishidir.** Kanal va daryolardan tashqari dehqonchilikka sug'orish borasida katta ahamiyatga ega bo'lgan irrigatsiyaning yana bir tarmog'i bu soylar hisoblanadi. Tog'lardan tushib keluvchi soy suvlari odatda yuzlab gektar yerlarni sug'orib olish uchun yetarlicha suv bergan, ayrim soylar mavsum davomida suv yetkazib bergan bo'lsa, ayrimlari bahorda sersuv bo'lishiga qaramay, yoz faslida qurib qolgan. Dehqonlar esa hamisha mavjud suv manbalaridan unumli foydalanishga harakat qilganlar.

Xo'jalikning chorvachilik va ovchilik tarmoqlari. Janubiy O'zbekiston hududlarida ovchilik va chorvachilik shart-sharoitdan kelib chiqqan holda turli darajalarda shakllandi. Sopollitepa yodgorligida qazish ishlari jarayonida qo'lga kiritilgan hayvon suyak qoldiqlari shuni tasdiqlaydiki, sopollitepaliklar chorvachilik bilan muntazam ravishda shug'ullanganlar, chorvachilik sopollitepalik va jarqo'tonliklar uchun dehqonchilikdan keyin turuvchi asosiy xo'jalik tarmog'i hisoblangan. Sopollitepa yodgorligidan 16 mingga yaqin suyak qoldiqlari yig'ib olingan, ushbu materiallar poleazolog B.X.Botiriov tomonidan o'rganilgan. Shundan 6906 tasi uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarga tegishli⁸. Tekshiruvlar orqali suyaklarning aksariyati oshxona chiqindilari sifatida tashlangan chiqitlardir. Eng ko'p uchratilgan suyaklar kichik shoxli

⁶ Древние цивилизации, «Мысль», Москва-1989, с. 27.

⁷ Древние цивилизации, «Мысль», Москва-1989, с. 220.

⁸ А. Аскарлов. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана, Ташкент, «Фан», 1977 г., стр. 119.

qoramollarga, keyingi o'rinda esa yirik shoxli qoramollar suyaklariga tegishli, mehnat qurollari sifatida foydalanilgan suyak qoldiqlari ham topilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sopolliliklar chorvachiligida qo'y boqish birinchi o'rinda turgan, chunki hududning iqlimi va geografik o'rni buning uchun qulay hisoblangan, keyingi o'rinlarda esa echki hamda yirik shoxli qoramollarni yetishtirish turadi. Topilgan qoldiqlarining orasida cho'chqa, eshak, it, mushuk va tuya kabi hayvonlarning suyaklari ham borligi aniqlangan. Chorvaning suyaklari qabr qo'rg'onlarida ham uchraydi, qo'y va echki suyaklarining ayrim qismlari – kurak, son, suyaklari, ayrim qabrdan esa butun boshli jonivor suyagi ham topilgan.

Yodgorlikdan aniqlangan cho'chqa va eshak suyaklarining umumiy miqdori 3 foiz atrofida bo'lib, naysimon suyaklarining o'rganilishi cho'chqaning kichik turga mansubligini ko'rsatdi va bu esa o'z navbatida Sopollitepadan biroz ilgariroq topilgan loydan ishlangan cho'chqa haykalchasi namunasi haqiqatdan ham bu yerda kichik turdagi cho'chqalar boqilganligi haqidagi ma'lumotni ham tasdiqladi.

Tuya suyaklari kam miqdorda topilgan bo'lsa-da, biz uchun qiziqarli va yetarli ma'lumotlarni olishimizga imkon yaratadi, tuyalar ikki o'rkachligi aniqlandi, xuddi shunday ikki o'rkachli tuya tasviri rassom tomonidan toshga ishlangan namumanisi qabr qo'rg'onlaridan birida ham qazilmalar chog'ida qo'lga kiritilgan.

Tuya va eshakning qo'lga o'rgatilishi bu davrda sopollitepaliklar chorvachilikda naqadar katta yutuqlarga erishganligi va eshakning ho'kizlar bilan bir qatorda dehqonchilikda foydalanganligi bizning yurtimizda tarqalgan madaniyatning nechog'lik ahamiyatli bo'lganligini tasdiqlaydi.

Itlar xonaki zotlari bu davr uchun xos bo'lsada, xo'jalikda kemiruvchilardan saqlanish uchun yana bir yovvoyi hayvonni qo'lga orgatishga ehtiyojni paydo qiladi, shu tarzda Sopollitepada qo'lga o'rgatilgan xonaki mushuklar zoti ham paydo bo'ladi.

Mayda shoxli qoramollarning suyak qoldiqlari statistik ma'lumotlari ko'ri chiqilganda ko'pchilik qismi bir yoshgacha bo'lgan qo'zichoqlarga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi, bunga sabab Markaziy Osiyo hududidan azaldan tarqalib kelgan qorako'lchilik an'analari bo'lishi mumkin, chunki qorako'l terisi, odatda, qo'zichoqning 2 – 3 kunligida olinadi. Shundan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, qo'ylar aksariyat hollarda go'shti uchun emas, balki terisi uchun boqilgan bo'lishi mumkin.

Ovchilik ham xo'jalikning ahamiyatli sohalaridan biri hisoblanib kelingan, ovchilik orqali qo'shimcha ravishda teri va go'sht mahsulotlarini qo'lga kiritish mumkin. Sopollitepadan topilgan suyaklarning 659 tasi yovvoyi hayvonlarga tegishlidir. Ular Buxoro bug'usi, qulon, jayron, yovvoyi cho'chqa, yovvoyi ho'kiz, tulki, silovsin, sirtlon, yovvoyi mushuk, bo'rsiq, yumronqoziq, quyon, bundan tashqari yovvoyi qushlarning suyaklari ham topilgan.

Ovda asosiy ovlanadigan hayvonlarni Buxoro bug'usi, qulon, yovvoyi buqalar tashkil qiladi, jami ovlangan hayvonlarning 80 foizini ushbu turdagi yovvoyi hayvonlar tashkil qiladi. Yirtqich hayvonlar orasida o'ldirilganlarining eng ko'pchiligini bo'rilar tashkil qiladi, ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bo'ri terisi yoki go'shti uchun emas, balki uy hayvonlariga zarar keltirganligi uchun o'ldirilgan.

Topilmalar va suyak qoldiqlari ziroatchi sopollitepaliklarning hayotida chorvachilik sohasi naqadar katta ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Chorvachilik faqatgina qishloq xo'jaligida yoki go'shti uchun yetishtirilmasdan, oziq-ovqat ratsionida muhim ahamiyatga ega bo'lgan suti uchun ham yetishtirilgan. Qoramollardan tashqari qo'y va echkilarning suti ham aholi tomonidan iste'mol qilingan.

Sopollitepaning qazish ishlari chog'ida qalin chirindi qatlamlari uchratilgan, ushbu hudud chorvalarni saqlash uchun joy sifatida foydalanilgan. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra, hatto, bugungi kunda ham ba'zi hududlarda qo'y va molar podalarga qo'shib haydab boqiladi. Bronza davri chorvadorlari

ham shu yoʻldan foydalangan boʻlishlari ehtimoldan yiroq emas. Erta tongdan oʻz chorvalarini choʻponlarga biriktirib dashtlarga qoʻyib yuborganlar va kech tushishi bilan yana ortga qaytarilgan va maxsus oʻrogʻliq joy – qoʻralarda saqlangan, yuqorida keltirilgan chirindi qatlamlari ham oʻsha qoʻralarning oʻrni hisoblanadi. Bu davrda ham choʻponlarning eng yaqin sheriklari itlar va eshak hisoblangan.

Yovvoy hayvonlarning suyak qoldiqlarini oʻrganish sopollitepaliklar yashagan davr faunasini oʻrganishga imkon beradi. Iqlim yovvoy hayvon va qushlarning yashashi uchun nihoyatda qulay boʻlgan. Yana bir omil esa tabiatga nisbatan antropogen tasirlarning kamligi yovvoy hayvon va qushlarning keng areallar boʻylab tarqalishiga toʻsqinlik qilmagan. Aholining ishlab chiqaruvchi xoʻjalikka oʻtilishi, dehqonchilikning unumdor boʻlishi va chorvachilikning mahsuldorligi ovchilik va oʻzlashtiruvchi xoʻjalikning ahamiyatini yetarli darajada tushirib yuboradi. Keyinchalik esa yetarli mahsulotlarning toʻplanishi oʻzaro qabilaviy urushlarning kelib chiqishiga ham sabab boʻladi. Sopollitepa va Jarqoʻndagi ayrim erkak kishiga tegishli qabrlardan chaqmoqtoshdan yasalgan paykon uchlari (shu turdagi kamon uchlari namunasi Oʻzbekiston madaniyati tarixi muzeyi ekspozitsiyasidan joy olgan), bronzadan qilingan boltaning namunalari topilgan.

Sopolli madaniyati **ishlab chiqarish** va **hunarmandchilik** borasida bir qator yutuqlarga erishgan. Bu davr kishilari mehnat qurollari, jang qurollari, taqinchoq va boshqa bezak buyumlari hamda kulolchilik mahsulotlari yasash kasblarini mukammal bilishgan.

Ishlab chiqarishda birinchi oʻrinda mehnat qurollarinin yasash turgan. Mehnat qurollari va jangovar qurollarning asosiy qismi toshlardan, bronza, suyaklar va yogʻochlardan tayyorlangan.

Tosh xomashyosidan yorgʻuchoq, hovoncha, keli, ketmon koʻrinishini eslatuvchi qurol, bolgʻa, qayroq, urchuq, palaxmon uchun yadro, toʻqmoq, kamon uchlari, tumor, ilgak, zirak kabilar mohirlik bilan tayyorlangan. Tosh xomashyosidan qurollar, buyumlar tayyorlash oson ish hisoblanmagan, buning uchun eng avvalo kerakli xomashyoni tanlab olish kerak. Toshlarni kertib kerakli holga keltirish murakkab jarayon boʻlib, usta buning uchun tayyorlayotgan qurol turiga qarab bir necha soatdan bir kungacha muddat sarflagan, taniqli arxeolog olim T.Shirinov oʻz eksperimentlarida buni isbotlagan.

Sopollitepa yodgorligidan jami boʻlib 60 dona kremniy paykon uchlari topilgan. Paykon uchlari kichik hajmda yartilgan boʻlishiga qaramay sifatli va did bilan qilingan. Ikki qirrali boʻlib, kremniyning eng sifatli turlaridan qilingan. Nayza uchlarini tayyorlash uchun ulkan nukleusdan oʻrtacha hajmdagi bir boʻlak ajratib olingan, unga maʼlum vaqt davomida ishlov berilgan va kerakli shaklga keltirib olingan, quyi qismida maxsus tigʻli joy qoldirilib, choʻpga bogʻlab qoʻyish uchun vosita hisoblangan.

Tosh qurollaridan yana bir keng tarqalgani bu motigalardir. Tosh ketmonlar yasashning bu davrga qadar turli uslublari yaratilgan. S.A.Semyonovning keltirishicha, motiga tayyorlashda turli madanlardan va turlicha texnologiyalardan foydalanishgan⁹. Xassun madaniyatida uchragan motiga kvartsdan qilingan, bunga oʻxshash motiga, shuningdek, Turkmaniston hududida tarqalgan Anov madaniyati yodgorliklarida ham uchraydi, motiganing ogʻirligi bir kilogramm atrofida¹⁰.

Tosh qurollarini oʻrganish natijasida deyarli har bir kishi ovchi boʻlishi bilan birga, bir vaqtning oʻzida usta ham hisoblangan. Ov jarayonlarida boʻladimi, dehqonchilikda boʻladimi mehnat quroli ishdan chiqqandan soʻng zudlik bilan yangisini tayyorlashga katta ehtiyoj sezilgan.

⁹ С.А.Семенов, Происхождение земледелия, Ленинград, «Наука», 1974, стр. 186.

¹⁰ Г.Ф.Коробков, Орудия труда и хозяйства неолитических племен Средней Азии, Ленинград, 1969, таб. X.

Sopollitepaning deyarli barcha hududlaridan tosh qurollari topilgan bo'lsada, xo'jalik hayotga sekin astalik bilan metall kirib kelishi va chaqmoqtosh va boshqa turdagi qurollarning siqib chiqarilishi ko'zga tashlanadi. Albatta, misdan so'ng bronzaning kashf qilinishi qadimgi davr kishilarining katta yutug'i bo'ldi. Shuning uchun ham misga nisbatan qattiq bo'lgan bronza qurollari sopollitepaliklar hayotidan ham tosh qurollarini chetlata boshladi.

Sopollitepa hayotida metallurgiya hunarmandchiligida bronzadan buyumlar tayyorlash yetakchilik qilgan. Bronza asosiy xom ashyo sifatida nafaqat jang qurollari, balki xo'jalik buyumlar, bezaklar, hatto, diniy marosim maqsadlarida ham keng miqyosda ishlab chiqarilgan. Bronzadan tayyorlangan buyumlar orasida ko'zgular, bilaguzuklar va to'g'nog'ichlar ko'p uchraydi. Taqinchoqlarning aksariyat qismi qabrlardan topilgan, jasadlar bilan birgalikda ularning taqinchoqlari, qurol-aslahalari, xo'jalikda ishlatgan ba'zi buyumlari bilan dafn etish odati bo'lgan. Bunday ko'rinishdagi qabrlar Samarqand viloyatining Urgut tumanida Mo'minobod qishlog'idan topilgan qabrlarda ham uchratilgan¹¹.

Topilgan metall buyumlari va parchalari tarkibiy jihatdan har xil, bunga sabab turli metall rudalaridan foydalanganligi, buyumlar tayyorlashda turli texnika qo'llanganligi hisoblanadi. Sopollitepadagi ustaxonalarni o'rganib, protashaharda metallurgiya alohida hunarmandchilik tarmog'i bo'lib shakllanganligiga guvoh bo'lamiz.

Yodgorlikning hududidan turli ko'rinishlardagi munchoqlar topilgan, shunisi e'tiborliki munchoqlar tayyorlash uchun alohida tashkil qilingan ustaxona Sopollitepa hududidan aniqlanmagan. Munchoqlarni tayyorlash, ularning xomashyosi bir qator madaniyatlarda o'zaro o'xshashliklarni keltirib chiqaradi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari qabilalarining o'zaro madaniya va etnik aloqalari natijasida shunday holat yuzaga kelgan bo'lsa kerak.

Sopollitepaning janubi-g'arbiy uchastkasida I kvartalda uchta xona ochilgan. Xonalar g'arbiy mudofaa devorlariga birlashtirilgan holda bunyod etilgan. Xonaning ichki qismida sharqdan g'arbga tomon cho'zilgan supalar joy olgan, supaning o'lchamlari mos ravishda 4 x 0,7 m, balandligi 30 sm ni tashkil qiladi. Supalar orasidagi masofa 70 sm, suyak qoldiqlari, pichoq tutqichi, pichoq, o'roq, shoxdan qilingan qurol va boshqa ashyolar bilan qorishib ketgan qalin tuproq qatlami topilgan. Oraliqdagi tuproq qatlamlaridan sopol idishlarning parchalarini va kremniydan qilingan qurol qoldiqlarini ham uchratamiz. Xonalarning hovli qismidan bronza muhri, bir qancha kremniydan qilingan qirg'ich kurakchalar uchratilgan.

Binolarning ichki tuzilishi va topilmalar kolleksiyasi yodgorlikda ishlab chiqaruvchi xo'jalik mavjud bo'lganligidan dalolat berib turibdi. Yana shunisi e'tiborliki, xona ichkarisidagi sufalar o'tirib ishlash uchun mo'ljallanganligi arxeologlar tomonidan e'tirof etildi. Ichkariga tabiiy yorug'likning tushib turishi uchun ustaxonaning ayvon qismi maxsus to'siq bilan ajratilmagan.¹²⁵

¹¹ Аскарлов А.А., Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде. // ИМКУ, вып. 8. Т, 1969, стр. 56 – 62.